

“PROKUROR KUBOGI”



Bugun Termiz shahar prokurori, 2-sektor rahbari X.P.Mamatqulovning tashabbusi bilan yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish hamda yosh avlodni sportga qiziqtirish maqsadida 2-sektor hududidagi yoshlar o'rtasida "Voleybol" sport turi bo'yicha qizlar o'rtasida "PROKUROR KUBOGI" musobaqasi o'tkazildi.

9 ta mahalla jamoalaridan iborat yoshlar ishtirok etgan ushbu musobaqada "Baynalminal" mahallasi jamoasi 1-o'rinni qo'lga kiritib, diplom va 1 mln. so'm pul mukofoti, "Turon" mahallasi jamoasi 2-o'rinni qo'lga kiritib, diplom va 700.000 so'm pul mukofoti, "Shodlik" mahallasi jamoasi 3-o'rinni qo'lga kiritib, diplom va 500.000 so'm pul mukofoti bilan taqdirlandi.